



O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MARKAZIY BANKI

# UzQR shaxsiy kabineti

---

FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI



# Mundarija

---

- 1. UzQR nima**

---

- 2. Ishni boshlash**

---

- 3. Shaxsiy kabinetga kirish**

---

- 4. QR yaratish**

---

- 5. QR boshqaruvi**

---

- 6. API yaratish va boshqarish**

---

- 7. Operatsiyalar tarixi**

---

- 8. Tavsiyalar**

---

- 9. Tez-tez beriladigan savollar**

---

- 10. Muammolar yuzaga kelsa**

---



# 1. UzQR nima

## ■ UzQR nima

UzQR – QR-kodlar orqali to'lovlarni qabul qilishning yagona standartini joriy etish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki loyihasi doirasida yaratilgan platforma.

Loyihaning maqsadi – QR orqali to'lovni bozorning barcha ishtirokchilari uchun sodda, qulay va ommabop qilish: xaridorlar tovar va xizmatlar uchun istalgan bank yoki to'lov ilovasidan to'lay oladi, biznes esa bunday to'lovlarni yagona QR-kod orqali qabul qiladi.

UzQR banklar va to'lov servislarini QR-kodlar orqali to'lovlarni qabul qilishning yagona ekotizimiga birlashtiradi hamda to'lov jarayonini yagona va tushunarli qiladi.

## ■ UzQR afzalliklari

UzQRdan foydalanish orqali siz quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lasiz:

- yagona QR-kod orqali to'lovlarni qabul qilish;
- istalgan bank yoki to'lov ilovasidan to'lovlarni qabul qilish;
- UzQR bilan alohida shartnoma tuzmasdan, xizmat ko'rsatuvchi bank orqali ulanish;
- pul mablag'larini QRga bog'langan hisob-kitob raqamiga olish;
- bitta bank hisob raqami uchun bir nechta QR ro'yxatdan o'tkazish;
- QR, API va operatsiyalar tarixini yagona Shaxsiy kabinet orqali boshqarish.

### IZOH

Aksariyat banklar pul mablag'larini darhol hisobga o'tkazishni qo'llab-quvvatlaydi. Mablag'larning amalda hisobga tushish vaqti xizmat ko'rsatuvchi bankka bog'liq.

## ■ UzQR qanday ishlaydi

Tizim bilan ishlash bir nechta bosqichdan iborat:

- Xizmat ko'rsatuvchi bank orqali ro'yxatdan o'ting.
- Shaxsiy kabinetga kiring.
- Bitta yoki bir nechta QR yarating.
- To'lovlarni qabul qilishni boshlang.
- Operatsiyalar tarixini ko'ring va QRni Shaxsiy kabinet orqali boshqaring.



## 2. Ishni boshlash

Shaxsiy kabinetdan foydalanishdan oldin quyidagilar zarur:

- Xizmat ko'rsatuvchi bank bilan shartnoma tuzish.
- Hisob-kitob raqamini ochish.
- Xizmat ko'rsatuvchi bank orqali UzQR tizimida ro'yxatdan o'tish.
- Shaxsiy kabinetga kirish huquqini olish.

Kirish huquqini olgandan so'ng, ish ssenariylaridan birini tanlang.

### ■ Statik QR orqali to'lov qabul qilish

Statik QR savdo nuqtasida, to'lov peshtaxtasida, vitrinda yoki bosma materiallarda joylashtirish uchun mos keladi.

Ishni boshlash uchun:

- Statik QR yarating.
- QRni yuklab oling.
- Uni xaridorlar uchun qulay joyga joylashtiring.
- Zarur bo'lsa, to'lovlar haqida bildirishnomalar olish uchun Telegram-botni ulang.

### ■ POS ulash

Agar siz kassa dasturiy ta'minotidan foydalansangiz, quyidagilar zarur:

- Dinamik QR yaratish.
- API-kalit yaratish.
- API-kalitni dinamik QRga bog'lash.
- API-kalitni kassa dasturiy ta'minoti yoki uskunasi yetkazib beruvchisiga topshirish.
- Integratsiya sozlamalarini birgalikda bajarish.
- Test to'lovini bajarish.

#### **MUHIM**

Har bir API-kalit faqat o'zi bog'langan QR bilan ishlaydi.

#### IZOH

Kassa dasturiy ta'minotini sozlash masalalari bo'yicha POS yechimingiz yetkazib beruvchisiga murojaat qiling.

### ■ **Bir nechta kassa bilan ishlash**

Agar tashkilot bir nechta kassadan foydalansa, quyidagilar tavsiya etiladi:

- har bir kassa uchun alohida dinamik QR yaratish;
- har bir kassa uchun alohida API-kalit yaratish;
- har bir API-kalitni tegishli QRga bog'lash.

Bunday yondashuv operatsiyalarni tezroq topish, qo'llab-quvvatlash va uskunani almashtirishni soddalashtirish imkonini beradi.


### 3. Shaxsiy kabinetga kirish



#### ■ Birinchi kirish

Sahifa birinchi marta ochilganda, brauzer saytning kompyuterda o'rnatilgan E-IMZO ilovasi bilan ishlashiga ruxsat so'rashi mumkin.

«Ruxsat berish» tugmasini bosing.




**1-rasm.** Brauzer ruxsat so'rovi.

#### ■ Avtorizatsiya

Kirish uchun:

- E-IMZO orqali avtorizatsiya usulini tanlang.
- Elektron imzo sertifikatini tanlang.
- ERI parolini kiriting.
- «OK» tugmasini bosing.

Tekshiruv muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng Shaxsiy kabinet ochiladi.



**2-rasm.** Avtorizatsiya.

## ■ Tilni o'zgartirish

Tilni o'zgartirish uchun sahifaning yuqori o'ng burchagidagi almashtirgichdan foydalaning.

Qo'llab-quvvatlanadi:

- Русский;
- O'zbekcha.

## ■ Tizimdan chiqish

Ishni yakunlash uchun foydalanuvchi nomini bosing va «Chiqish» bandini tanlang.

Brauzerni yopishdan oldin, ayniqsa umumiy kompyuterdan foydalanganda, tizimdan chiqish tavsiya etiladi.



### Yangi QR ro'yxatdan o'tkazish

Subyekt nomi YaT **YAT**

INN/PINFL **328**

Joylashuv mamlakati **UZ**

Valyuta kodi **UZS**

[Noto'g'rilikni sezdingizmi? 1035 raqami bo'yicha qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qiling](#)

**Bank hisob raqami** **QR turi**

Ro'yxatdan hisob tanlang

**QR nomi**

Qisqa nom

30 simvol lotin harflari bilan, «-» va «\_». Bo'sh joysiz

**4-rasm.** QR yaratish.


### Bank hisob raqamini tanlash

Ushbu QR bo'yicha pul mablag'lari o'tkaziladigan hisob raqamini tanlang.

Ro'yxatda faqat ro'yxatdan o'tkazish uchun mavjud hisob raqamlari ko'rsatiladi.

#### **MUHIM**

Bitta bank hisob raqami uchun bir nechta QR ro'yxatdan o'tkazish mumkin.



**5-rasm.** Bank hisob raqamini tanlash.

## QR turini tanlash

Ro'yxatdan o'tkazishda QR turini tanlash kerak.

### Statik QR

Bosib chiqarish va savdo nuqtasida joylashtirish uchun ishlatiladi.

### Dinamik QR

Kassa dasturiy ta'minoti orqali to'lovlarni qabul qilishni avtomatlashtirish uchun ishlatiladi.

## QR nomi

Keyinchalik kerakli QRni topish oson bo'lishi uchun tushunarli nomlardan foydalaning.

Masalan:

SHOP

CASH\_1

DELIVERY

Forma to'ldirilgandan so'ng «Ro'yxatdan o'tkazish» tugmasini bosning.

## 5. QR boshqaruvi




QR ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng uning parametrlarini o'zgartirishingiz, to'lovlarni qabul qilishni vaqtincha to'xtatishingiz yoki QRni bosib chiqarish uchun yuklab olishingiz mumkin.

Amalni bajarish uchun kerakli QR qarshisidagi : tugmasini bosing.

Mavjud amallar to'plami QR turiga bog'liq.

### Statik QR

- QR nomini sozlash;
- QRni bloklash;
- QRni blokdan chiqarish;
- Telegram-botga bog'lash;
- QRni yuklab olish.



6-rasm. Statik QR bilan amallar.

### Dinamik QR

- QR nomini sozlash;
- QRni bloklash;
- QRni blokdan chiqarish.

No	QR	QR nomi	QR turi	Hisob	MFD kodi	Bank kodi	QR holati	Ulangan API
1	6r1K...	newstat3	Statik	235202...	01180	062	Fail	0
2	6r1K...	newstat2	Statik	235202...	01180	062	Fail	0
3	6r1K...	newstat	Statik	235202...	01180	062	Fail	0
4	6r1K...	new1	Dinamik	235202...	01180	062	Fail	0
5	6r1Z...	TestorDynamic	Dinamik	235202...	01180	062	Fail	0
6	6r1Z...	TestorQR	Statik	235202...	01180	062	Fail	0

**7-rasm.** Dinamik QR bilan amallar.


## ■ QR nomini o'zgartirish

QR nomini o'zgartirish kerak bo'lsa, ushbu funksiyadan foydalaning.

### Nomni qanday o'zgartirish kerak

- Kerakli QR yonidagi : tugmasini bosing.
- «QR nomini sozlash» bandini tanlang.
- Yangi nomni kiriting.
- «Saqlash» tugmasini bosing.

Saqlangandan so'ng yangi nom QR ro'yxatida darhol ko'rsatiladi.




**8-rasm.** QR nomini o'zgartirish.

## ■ QRni bloklash

To'lovlarni qabul qilishni vaqtincha to'xtatish kerak bo'lsa, bloklashdan foydalaning.

### QRni qanday bloklash kerak

- Kerakli QR yonidagi : tugmasini bosing.
- «QRni bloklash» bandini tanlang.
- Amalni tasdiqlang.



9-rasm. QRni bloklash.

#### MUHIM

Bloklangandan so'ng yangi to'lovlarni qabul qilish imkonsiz bo'ladi.

Dinamik QR uchun qo'shimcha ravishda:

- to'lov uchun yangi QRlar boshqa yaratilmaydi;
- to'lanmagan QRlar avtomatik ravishda o'chiriladi;
- API-kalitlar saqlanadi.


#### ■ QRni blokdan chiqarish

Bloklash sababi bartaraf etilgandan so'ng QRdan to'lovlarni qabul qilish uchun yana foydalanish mumkin.

#### QRni qanday blokdan chiqarish kerak

- Kerakli QR yonidagi : tugmasini bosing.
- «QRni blokdan chiqarish» bandini tanlang.
- Blokdan chiqarish sababini kiriting.

- «Blokdan chiqarish» tugmasini bosing.



QR ni qayta yoqish? ✕

QR raqami 6r1V111#  
Blokash turi Qo'lda

**Blokni olib tashlash sababi**

Qisqacha sababini yozing

0/Maksimum 120 ta belgi

Bekor qilish Qayta yoqish

**10-rasm.** QRni blokdan chiqarish.

**MUHIM**


«Blokdan chiqarish sababi» maydoni majburiy hisoblanadi.

## ■ Telegram-botni ulash

Telegram-bot statik QR bo'yicha muvaffaqiyatli to'lov haqida bildirishnomalar olish imkonini beradi.

### Telegramni qanday ulash kerak

- Statik QR yonidagi : tugmasini bosing.
- «Telegram-botga bog'lash» bandini tanlang.
- Chat IDni kiriting.
- «Bog'lash» tugmasini bosing.



**11-rasm.** Telegramni ulash.

Ulanish muvaffaqiyatli bo'lgandan so'ng bildirishnomalar tanlangan chatga avtomatik yuboriladi.

#### **MUHIM**

Telegram-bot faqat statik QRLar uchun qo'llab-quvvatlanadi.

### **Chat IDni qanday olish kerak**

Agar Chat ID noma'lum bo'lsa:

- Telegram-botni kerakli chatga qo'shing.
- Uni administrator qilib tayinlang.
- Tizim administratori yo'riqnomasiga muvofiq Chat IDni oling.
- Olingan Chat IDni Shaxsiy kabinetda kiriting.

### **QRni yuklab olish**

Statik QRni yuklab olib, to'lovlarni qabul qilish uchun ishlatish mumkin.

## **QRni qanday yuklab olish kerak**

- Statik QR yonidagi : tugmasini bosning.
- «QRni yuklab olish» bandini tanlang.

Yuklab olingan QRni quyidagicha ishlatish mumkin:

- bosib chiqarish;
- kassada joylashtirish;
- vitrinada joylashtirish;
- reklama materiallarida foydalanish.

## **■ QRni sinxronizatsiya qilish**

Agar ro'yxatdan o'tkazilgan statik QR Shaxsiy kabinetda ko'rinmasa, sinxronizatsiya funksiyasidan foydalaning.

### **Sinxronizatsiyani qanday bajarish kerak**

- «QR boshqaruvi» bo'limini oching.
- «QRni sinxronizatsiya qilish» tugmasini bosning.

Sinxronizatsiya tugagandan so'ng ko'rinmayotgan statik QRLar ro'yxatda avtomatik paydo bo'ladi.

#### **MUHIM**

Sinxronizatsiya faqat statik QRLar uchun bajariladi.

## 6. API yaratish va boshqarish



API-kalit kassa dasturiy ta'minotini UzQRga ulash uchun ishlatiladi.

API faqat dinamik QRlar uchun yaratiladi.

No	API nomi	API holati	QR	QR holati	Yaratilgan sana
1	Dynamic-Island	Faol	612E...	Faol	26.06.2026
2	MarfankDinamik	Faol	61B...	Faol	25.06.2026
3	MBDinamik	Faol	61H...	Faol	25.06.2026
4	fiscalbox	Faol	61C...	Faol	24.06.2026
5	kassaB	Faol	61D...	Faol	24.06.2026

12-rasm. API boshqaruvi.

### ■ API yaratish

#### APIni qanday yaratish kerak

- «Yangi API» tugmasini bosing.
- Dinamik QRni tanlang.
- API nomini kiriting.
- «Yaratish» tugmasini bosing.

### Yangi API kalitini ro'yxatdan o'tkazish ✕

API kaliti sizning tizimingizni bizning xizmatimiz bilan avtomatlashtirish uchun integratsiya qilish imkonini beradi. Iltimos, uni xavfsiz saqlashingiz va ruxsatsiz shaxslar bilan bo'lishmasligingizga ishonch hosil qiling.

**QR**

Hisob tanlang ▾

**API kaliti nomi**

Qisqa nom

30 ta belgi lotin harflari va raqamlardan iborat bo'lishi, bo'sh joylarsiz yozilishi kerak. «-» va «\_» belgilariga ruxsat beriladi

Bekor qilish Ro'yxatdan o'tkazish


**13-rasm.** API yaratish.

#### **MUHIM**

API faqat UzQRda ro'yxatdan o'tkazilgan dinamik QR uchun yaratilishi mumkin.

## ■ **API-kalitni olish**

API yaratilgandan so'ng tizim API-kalitni avtomatik shakllantiradi.



**14-rasm.** API-kalitni olish.

Quyidagi amallar mavjud:

- API-kalitni nusxalash;
- API-kalitni faylga saqlash;
- oynani yopish.

#### **MUHIM**

API-kalit faqat bir marta ko'rsatiladi. Oyna yopilgandan so'ng uni qayta olish imkonsiz.

API-kalitni yaratilgandan so'ng darhol saqlash tavsiya etiladi.

## ■ **API bog'lanishini o'zgartirish**

Agar APIni boshqa dinamik QR bilan ishlatish kerak bo'lsa, bog'lanishni o'zgartiring.

### **Bog'lanishni qanday o'zgartirish kerak**

- Kerakli API yonidagi : tugmasini bosish.
- «APIni QRga bog'lashni sozlash» bandini tanlang.
- Yangi QRni tanlang.

- «Saqlash» tugmasini bosing.

— **15-rasm.** API bog'lanishini o'zgartirish.

#### **TAVSIYA ETILADI**

Bog'lanishni o'zgartirishdan oldin joriy QR bo'yicha operatsiyalarni solishtirishni bajaring.

Saqlangandan so'ng API-kalit yangi QR uchun ishlatiladi.

## ■ **APIni o'chirish**

Agar API boshqa ishlatilmasa, uni o'chirish mumkin.

### **APIni qanday o'chirish kerak**

- Kerakli API yonidagi : tugmasini bosing.
- «APIni o'chirish» bandini tanlang.
- O'chirishni tasdiqlang.

O'chirilgandan so'ng API-kalit yaroqsiz bo'ladi.

Ishni davom ettirish uchun yangi API-kalit yaratish talab qilinadi.

## 7. Operatsiyalar tarixi




«Operatsiyalar tarixi» bo'limida quyidagilar mumkin:

- to'lovlarni ko'rish;
- qaytarishlarni rasmiylashtirish;
- qaytarishlar holatini kuzatish;
- operatsiyalar tarixini eksport qilish.

Tarix ikki bo'limdan iborat:

- To'lovlar;
- Qaytarishlar.



16-rasm. Operatsiyalar tarixi.

### ■ To'lovlarni ko'rish

«To'lovlar» bo'limida barcha amalga oshirilgan to'lovlar ko'rsatiladi.

Kerakli operatsiyani tez topish uchun qidiruv qatoridan foydalaning.

Qidiruv quyidagilar bo'yicha bajariladi:

- to'lov raqami bo'yicha;
- invoys raqami bo'yicha.

### ■ To'lovlarni filtrlash

Muayyan davr bo'yicha operatsiyalarni topish uchun:

- «Filtr» tugmasini bosing.
- Davrni tanlang.
- Zarur bo'lsa, QRni tanlang.
- «Qo'llash» tugmasini bosing.



**17-rasm.** To'lovlar filtri.

#### **MUHIM**

Qidiruvning maksimal davri 35 kunni tashkil etadi.

### ■ **To'lovlarni eksport qilish**

To'lovlar tarixini saqlash uchun:

- «Hisobotni yuklab olish» tugmasini bosing.

Hisobot tanlangan filtrlarni hisobga olgan holda CSV formatida shakllantiriladi.


### ■ **To'lovni qaytarish**

Agar xaridorga pul mablag'larini qaytarish kerak bo'lsa, qaytarishni bevosita to'lovlar ro'yxatidan rasmiylashtiring.

#### **Qaytarishni qanday rasmiylashtirish kerak**

- Kerakli to'lovni toping.
- : tugmasini bosing.


- «To'lovni qaytarish» bandini tanlang.



**18-rasm.** To'lovni qaytarish.

Ochilgan oynada:

- To'lov haqidagi ma'lumotlarni tekshiring.
- Qaytarish summasini kiriting.
- «Qaytarishni rasmiylashtirish» tugmasini bosning.



**19-рasm.** Qaytarishni rasmiylashtirish.

#### **МУНИМ**

Qaytarish summasi dastlabki to'lov summasidan oshmasligi kerak.

#### **ИЗОН**

Qaytarishni bajarish bir necha soniyadan bir necha soatgacha vaqt olishi mumkin.

Yaratilgandan so'ng qaytarish avtomatik ravishda «Qaytarishlar» bo'limida paydo bo'ladi.

## ■ Qaytarishlarni ko'rish

«Qaytarishlar» bo'limida barcha rasmiylashtirilgan qaytarishlar ko'rsatiladi.

Qidiruv va filtrdan to'lovlar uchun bo'lgani kabi foydalaning.

## ■ **Qaytarishlarni filtrlash**

Qaytarishlarni topish uchun:

- «Filtr» tugmasini bosing.
- Qaytarish sanasini tanlang.
- Zarur bo'lsa, QRni tanlang.
- «Qo'llash» tugmasini bosing.

## ■ **Qaytarishlarni eksport qilish**

Qaytarishlar tarixini saqlash uchun:

- «Hisobotni yuklab olish» tugmasini bosing.

Hisobot CSV formatida shakllantiriladi.

## 8. Tavsiyalar




Quyidagi tavsiyalar QRLar, kassalar va integratsiyalar soni ortib borganda tizim bilan ishlashni qulayroq qilishga yordam beradi.

### ■ QR uchun tushunarli nomlardan foydalaning

Nom QR qayerda ishlatilishini darhol ko'rsatishi kerak.

Masalan:



Tushunarli nomlar quyidagilarni tezroq bajarishga yordam beradi:

- QRni topish;
- APIning ro'yxatdan o'tkazish;
- operatsiyalarni topish;
- muammoni qo'llab-quvvatlash xizmatiga tushuntirish.

### ■ Har bir kassa uchun alohida QRdan foydalaning

Bitta bank hisob raqami uchun bir nechta QR ro'yxatdan o'tkazish mumkin.

Agar bir nechta kassa ishlatilsa, ularning har biri uchun alohida QR yaratish tavsiya etiladi.

Bu quyidagilarga imkon beradi:

- to'lov manbasini tez aniqlash;
- operatsiyalarni qidirishni soddalashtirish;
- solishtirishni tezroq bajarish.

### ■ Har bir kassa uchun alohida API dan foydalaning

Har bir kassaga o'z API-kalitini tayinlash tavsiya etiladi.

Har bir API-kalit o'zining dinamik QRiga bog'langan bo'lishi kerak.

Bu quyidagilarga imkon beradi:

- boshqa kassalarni to'xtatmasdan bitta kassani almashtirish yoki o'chirish;

- xato manbasini tezroq aniqlash;
- kassa uskunasi qo'llab-quvvatlashni soddalashtirish.

## ■ API-kalitni yaratilgandan so'ng darhol saqlang

Oyna yopilgandan so'ng API-kalitni qayta olish imkonsiz.

Tavsiya etiladi:

- API-kalitni faylga saqlash;
- uni mas'ul xodimga topshirish;
- xavfsiz joyda saqlash.

## ■ Ishni tashkil etish namunasi

Quyida ishni tashkil etishning mumkin bo'lgan variantlaridan biri keltirilgan.

### Hisob-kitob raqami

- Statik QR
  - └ Telegram
- Dinamik QR "Kassa 1"
  - └ API POS\_1
- Dinamik QR "Kassa 2"
  - └ API POS\_2
- └ Dinamik QR "Kassa 3"
  - └ API POS\_3

Bunday tuzilma bitta bank hisob raqamidan foydalanish bilan birga to'lov qaysi kassa orqali amalga oshirilganini oson aniqlash imkonini beradi.

## 9. Tez-tez beriladigan savollar



### UzQR bilan alohida shartnoma tuzish kerakmi?

Yo'q. Ulanish uchun xizmat ko'rsatuvchi bank orqali ro'yxatdan o'tish kifoya.

### Pul mablag'lari qayerga tushadi?

QR ro'yxatdan o'tkazilganda tanlangan hisob-kitob raqamiga.

### Bir nechta QRni ro'yxatdan o'tkazish mumkinmi?

Ha. Bitta bank hisob raqami uchun bir nechta QR ro'yxatdan o'tkazish mumkin.

### Bitta API-kalitdan bir nechta kassa uchun foydalanish mumkinmi?

Tavsiya etilmaydi. Har bir kassa uchun alohida API-kalit yaratgan ma'qul.

### API-kalit yo'qolgan bo'lsa, nima qilish kerak?

Avval yaratilgan API-kalitni qayta olish imkonsiz. Yangi API-kalit yarating va sozlamalarni yangilash uchun uni kassa dasturiy ta'minoti yetkazib beruvchisiga topshiring.

### To'lovlar haqida bildirishnomalarni qanday olish mumkin?

Telegram-botni statik QRga ulang va Chat IDni kiriting.



## 10. Muammolar yuzaga kelsa

---

Shaxsiy kabinet bilan ishlashda xatolik yuzaga kelsa:

- Xato kodini yozib oling.
- Imkon bo'lsa, operatsiya bajarilgan vaqtni saqlab qo'ying.
- Qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qiling.

↗ Xatolik xabarlari to'liq ro'yxati «**UzQR xatoliklar ma'lumotnomasi**» hujjatida keltirilgan.